



## SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI INQILOB DAVRIDAGI YURIDIK TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

*Nosirov Nasimjon Qosimjon o'g'li*

*Toshkent davlat yuridik universiteti, LL.B*

*n.novirov@tsul.uz, +998999439897*

Hech shubhasiz aytish mumkinki, 2020-yil voqealari keyingi davr tarix kitoblarining salmoqli qismini egallaydi. Dunyo yangi yilning ilk kunlarini katta to'qnashuvning real xavfi va boshi berk ko'chaga kirib qolgan AQSH-Eron ziddiyatlari bilan qarshiladi. Jiddiy global pandemiyadan tortib uning ortidan kelgan, undan-da jiddiyoq global inqiroz, neft bozoridagi talato'plargacha guvohi bo'lib ulgurdik. Oxirgi 3-4 oy bizga evrilishlar nuqtasida turganimizni ko'rsatib qo'ydi (bu hozircha sizga sezilmayotgan bo'lsa ham). Allaqachon yirik davlat arboblari, olimlar, iqtisodchi va siyosatchilar pandemiyadan so'ng insoniyat boshqa dunyoda, jamiyat o'zgacha qonuniyatlar asosida yashashini ta'kidlashmoqda.

Xo'sh, shunday sharoitda ta'limning, xususan yuridik sohadagi o'qitish tizimining keyingi taqdiri qay yo'sinda kechadi? Yuqoridagi omillar ta'limda tub burilish yasay oladimi?

Yuridik ta'limga to'xtalganda, **yuridik faoliyat** va **ta'lim sohasining** tutashgan nuqtasini muhokama qilishimiz o'rinli bo'ladi. Keling, avvalo yuridik faoliyatning kelajakdagi manzarasi xususida fikr yuritib ko'ramiz. Chunki yurisprudensiya kelajagi haqida tasavvurga ega bo'lmay turib, unga mos ta'lim tizimini yo'lga qo'yish amrimahol. Uzoq yillar davomida

jamiyat tomonidan huquqshunoslik nufuzli, yuksak qadrlanadigan, jiddiy va to'g'ri ma'noda qimmat kasb sifatida ko'rib kelinmoqda. Shu bilan bir qatorda, yuridik faoliyatning aksariyat yo'nalishlari konservativ ruhda qolib, buni



yangiliklarni qabul qilish va moslashish qiyin kechayotganidan ham bilishimiz mumkin. Ayrim juz'iy o'zgarishlarni hisobga olmaganda u yuz yil oldingi holatidan deyarli farq qilmaydi: o'sha-o'sha uzoq davom etuvchi sud protsesslari, qimmat kostyum kiygan advokatlar, "Habeas

corpus" va hkz.

Ammo asr boshlaridan yurisprudensiyaga ham texnologik rivojlanish hamda axborot inqilobi ta'sirida boshqacha qaray boshlandi. Natijada huquqshunoslarga ilgari ma'lum bo'lmagan **LawTech, LegalTech**<sup>[1]</sup>, keyinchalik **Legal AI, LPO, LPM, legal-tech startup, smart kontrakt** kabi yangi tarmoq va tushunchalar paydo bo'ldi. Qator yuridik xizmatlarni ko'rsatuvchi **sun'iy intellekt (artificial intelligence)** dasturlari sohaga yuristlar tomonidan emas, balki asosan dasturchi va kompyuter mutaxassislari tomonidan olib kirildi. Ko'plab insonlar, ayniqsa, amaliyotdagi huquqshunoslar "**sun'iy intellekt** hech qachon sudya, advokat o'rnini to'laqonli egallashga qodir emas" degan fikrga qattiq yopishib olgan bo'lsalar-da, bu hozirgi davr tendensiyasida anchayin sayoz qarashdir. Koronavirus pandemiyasi shart-sharoitlari ushbu tarmoq rivojini skeptik yondashuvdan kundalik zaruratga aylantirib qo'ydi. Endilikda yurisprudensiyaning kiber transformatsiyasi – raqamli shaklga o'tish jarayonining tezlashishi kundek ravshan. Yaqin o'n yillikda dunyo bo'ylab yurisprudensiya va sun'iy intellektning qo'shilishini kuzatishimiz mumkin. Albatta, bu jarayon avval boshqa soha va faoliyat tarmoqlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Biroq kechroq bo'lsada, sun'iy intellekt yuridik faoliyatda keng qo'llanadi deb bermalol aytish mumkin.

Umuman olganda, pandemiya ta'siridagi yangi jamiyat hayotini shartli ravishda kiberadoptatsiya davri deb atashimiz mumkin. Sababi oddiy – ilgari ixtiyoriy bo'lgan axborot texnologiyalari, raqamlashtirish endilikda zarurat bo'lib qoldi. Ta'limda bu jarayon ancha oldinroq boshlab yuborilgan. Onlayn ta'lim platformalari sun'iy intellekt yordamida har bir foydalanuvchiga (talabaga)



individual yondashish imkoniga egaligi hozirda barcha uchun ma'lum haqiqat. Dunyoning ko'plab yetakchi universitetlari ham o'zining xususiy o'qitish tizimiga, ayrimlari patentlangan raqamli o'qitish tizimiga ega. Shu bilan birga, ta'limni raqamlashtirish deganda uni faqat onlayn shaklga o'tkazishni tushunmaslik kerak. Bunda raqamli texnologiyalar va **mashina o'rganish algoritmlari (Machine Learning algorithms)** orqali ta'lim berish sifatini oshirish metodlarini ham hisobga olish kerak. Misol uchun, o'qituvchilar saviyasini va talabalar bilim sifatini doimiy nazorat qilish, baholash, har bir talabaning o'zlashtirish qobiliyati, kamchiliklari, qaysi fanlarni egallashda oqsayotgani, va aksincha qaysilarida natija ko'rsatayotgani, o'quv jarayonidagi qiziqishlarini o'rgangan holda alohida dasturiy ta'minotlar ishlab chiqish mumkin.

Shu va boshqa qochib bo'lmas postulatlariga tayanib, yaqin kelajakdagi yuridik ta'limning qismati (u O'zbekistonda bo'lsin yoki boshqa joyda) to'g'ridan to'g'ri axborot texnologiyalariga bog'liq degan tasavvur uyg'otadi. Bu davrni O'zbekiston yuridik ta'lim tizimida kutilayotgan yana bir o'ziga xos jihat bilan xarakterlashimiz mumkin: bizda xususiy yoki davlat-xususiy sheriklik asosidagi oliy yuridik ta'lim muassasalari hamda yo'nalishlari sonining ortishi sodir bo'ladi. Bu o'z-o'zidan raqobatni yuzaga keltirib, sohaning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi. Qisqa qilib aytganda, LegalTech va Legal AI – kelajak, konservativ – an'anaviy yuridik faoliyat esa o'tmish. Bu kutilmalar faqat rivojlangan davlatlarga tegishli, O'zbekistonga hali ancha bor deb e'tiroz bildirishingiz mumkin. Biroq dunyo deyarli horizontal ko'rinish kasb etganiga ancha bo'ldi. Siz ishlatayotgan smartfonning aynan bir rusumini nemis mexanigi ham ishlatmoqda, siz har kuni foydalanadigan Googledan vyetnamlik qizaloq ham o'zi uchun qiziq ma'lumotni qidira oladi. Shunday ekan, yuqoridagi tendensiya ertami-kechmi bizga ham yetib keladi. Biz esa shularga tayyor turib, uzoqni o'ylovchi strategiya shakllantirib, yuridik ta'lim tizimini shunga mos tarzda qurishimiz davr talabi.



### **Xo'sh, bunga qaysi mexanizmlar bilan erishish mumkin?**

*Birinchi navbatda*, allaqachon qilinishi kerak bo'lgan ishlar imkon qadar tez fursatlarda ta'lim tizimiga tatbiq etilishi maqsadga muvofiq. Bular kredit-modul tizimini to'liq joriy qilish, majburiy (core) va majburiy-ixtiyoriy (optional) fanlar jamlanmasini ishlab chiqish, lektor va boshqa o'qituvchilarni talabalar tomonidan tanlash amaliyotini yaratish kabi vazifalardir. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Prezident farmonida ham bu kabi chora-tadbirlarni rivojlantirish qisqacha nazarda tutilgan. Bunda g'ildirakni qayta kafsh etish shart emas. O'zini oqlagan ECTS (European credit transfer and accumulation system) standartlarini O'zbekiston yuridik ta'limiga ham mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda joriy qilish lozim. Hozirda asosiy yuridik ta'lim maskani – Toshkent davlat yuridik universitetida bu kabi ishlar qisman amalga oshirilgan. Biroq keyingi qadamlar qo'yilishida ikkilanishlar ko'zga tashlanmoqda. Majburiy va ixtiyoriy kurslar paketini shakllantirish tadbirlari qanchalik erta tatbiq qilinsa, uning samarasi shunchalik barvaqt ko'rinadi. Bu bilan foydasiz bahslarga sabab bo'lgan va universitetda o'ziga xos "tabaqalanish"ga olib kelgan yo'nalishlarga (fakultetlarga) ajratish amaliyoti to'la o'z ahamiyatini yo'qotadi (ushbu amaliyotga aloqador yana bir achinarli jihatni o'zingiz yaxshi bilasiz). Talabalar tayanch huquq sohalarini

majburiy fanlar sifatida o'zlashtirsa, yuridik bozor ehtiyojlaridan kelib chiqib hamda o'z qiziqishlariga qarab ixtiyoriy fanlarni tanlashadi. Bu jarayon kadrlar sifatiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Yana bir masalada savol tug'ilishi tabiiy: agar lektor-ma'ruzachi va boshqa professor-o'qituvchilarga oldindan yozilish tartibi joriy qilinsa, ayrim malakali o'qituvchilarda talabalar soni ko'proq, boshqalarida esa kamroq bo'lib qolmaydimi? Yo'q, bunday bo'lmaydi. Chunki barcha lector- professorlarga bir xil kvotadagi talabalar



o'zni ajratilib, qaysi talaba kursga oldinroq yozilgan bo'lsa, malakali lektor ma'ruzasida qatnashish huquqi o'sha talabaga nasib etadi. Ro'yxatga kechikkan talabalar boshqa to'lib ulgurmagan lektor kursiga yozilishadi. Masalan, talabalarning umumiy soni 180 ta bo'lib, ma'ruzachi A, B va C professorlarga 60 tadan kvota ajratilgan deylik. A professorga 100 ta, B professorga 50 ta, C professorga 30 ta talaba yozildi. Yakunda, birinchi

bo'lib yozilgan 60 ta talaba A professorning kursida qatnasha olsa, qolgan 40 ta talaba xuddi shu tartibda ixtiyoriy B yoki C professorlarning kursiga yozilishadi. Bu protsess mutlaqo shaffof ko'rinishdagi elektron tizim orqali amalga oshirilishi juda ham muhim.

*Ikkinchidan*, amaldagi axborot tizimi takomilga muhtoj. Unga ilg'or dasturiy yechimlar jalb etilishi davr talabi (in-house yoki outsourcing orqali). Yuridik universitet talabasi hozirda tegishli modul materiallari bilan tanishish uchun [www.mysul.uz](http://www.mysul.uz) saytiga, fanga doir kitoblarni o'qish uchun [www.library.tsul.uz](http://www.library.tsul.uz) nomli saytga, reyting ballarini ko'rmoqchi bo'lsa, [www.srs.tsul.uz](http://www.srs.tsul.uz) tizimiga murojaat qilishiga to'g'ri keladi. Agar shularning barchasi yagona portalga to'plansa, mustaqil ta'lim jarayonida samaradorlik oshgan bo'lar edi. Talabalar o'quv yili boshlanishidan 15-20 kun oldin qaysi modullar o'tilishi, dars mashg'ulotlari qay tartibda bo'lishi, lektorlar va boshqa professor o'qituvchilar haqidagi ma'lumotlar, lektorlarga yozilish va ixtiyoriy fanlarni elektron tarzda tanlash ham shu yagona portal orqali yo'lga qo'yilishi ayni muddao. O'quv xonasidan tashqarida yoziladigan oraliq nazorat ishlarini axborot tizimi orqali elektron shaklda topshirish yo'lga qo'yilishi lozim (bilishimcha, bu borada ishlar boshlab yuborilgan). Bir so'z bilan aytganda, yagona portal talabalar uchun unikal platformaga aylanishi kerak. Bundan buyon universitet binosiga emas, uning dasturiy ta'minot tizimiga qarab baho beriladi.



*Uchunchidan*, yuqorida ta’kidlaganimiz – universitet yuridik ta’limni uzoqni ko’zlagan holda, kelajakdagi yuridik faoliyat shakl-shamoilidan kelib chiqib tashkil etishi lozim. Bu shakl-u shamoil esa axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog’liqligini aytib o’tdik. To’g’ri, Toshkent davlat yuridik universitetining magistratura bosqichida “Huquq va axborot texnologiyalari” yo’nalishi mavjud. Bakalavriat 1-bosqich talabalariga “Axborot kommunikatsiya texnologiyalari” moduli o’qitiladi. Bu boradagi ishlarni kuchaytirgan holda, LegalTech, “Yurisprudensiyada sun’iy intellekt” (Legal AI) kabi huquqning yangi tarmoqlariga chuqur urg’u qaratish kerak. Bunda jahonning shu yo’nalishda yetarli tajribaga ega universitetlari (Harvard yoki MIT kabilar nazarda tutilmayapti, bu hozirda deyarli imkonsiz. Germaniya universitetlari yaxshi tanlov) va xorijiy kompaniyalari bilan aloqa o’rnatish dolzarb. Shu orqali ularning professor va mutaxassislarini jalb qilish, yurtimizdagi universitet professor-o’qituvchilarining malakasini mana shu tarmoqlar bo’yicha oshirish hamda keyinchalik bakalavriat va magistratura talabalarini shu asosda o’qitish muhim. Shuni ham aytib o’tish joizki, LegalTech yoki Legal AI sohasi rivojlangan davlatlarda ham yaqin yillarda vujudga kelgan huquq tarmog’i hisoblanadi. Ya’ni hali ular bizdan, boshqa sohalardan farqli ravishda, uncha uzoqlashib ketmagan. Shu sabab qanchalik fantastik eshitilmasin, O’zbekistonning bu yo’nalishda dunyoning ilg’or davlatlaridan biriga aylanish ehtimoli yo’q emas.

*Vanihoyat*, ta’lim tizimidagi paypoq uzunligini o’lchash, galstukni “ilohiylashtirish” kabi mantiqqa va aqlga sig’maydigan tartiblarni bekor qilish vaqti keldi. Bunda rahbariyat tepadan buyruq kelishini kutishi yoki o’zgarish qilishdan qo’rqishi – shunchaki o’z-o’zini cheklash, samosenzuradan boshqa narsa emas. Buning uchun siyosiy irodaning o’zi yetarli (TDIU yangi rektorini eslang). Xulosa qilib aytganda, sohaning rivojidan manfaatdor har bir shaxs yuridik ta’lim kelajagiga befarq bo’lmay, harakatni bugundan boshlashi lozim. Aks holda, kech bo’lishi mumkin. Ayniqsa hozir, yurtimizda davom etayotgan karantin sharoitida,



tizimni yangilash va yuqorida taklif etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun eng qulay paytdir.

*[1] LegalTech – yuridik firmalar, korxonalar yoki korporatsiyalardagi yuristlar uchun o'zlarining ishlarini soddalashtirish va avtomatlashtirishga yordam beradigan texnologik yechimlar bo'lsa, LawTech – to'g'ridan to'g'ri oddiy xalq va kichik biznes subyektlariga onlayn robot-yurist xizmatlarini ko'rsatuvchi algoritmlardir. So'nggi yillarda ikkala atama uchun ham "LegalTech" ishlatilmoqda.*

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.library.uz](http://www.library.uz)